

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI**

**AXMEDOV SHERZOD MAMARAIM O'G'LI**

**BA'ZI ORGANIK MODDALARNING VAKUUM VA ATMOSFERA  
BOSIMI SHAROITIDA TERMAL DESORBSIYASI VA TERMAL  
IONLASHUVI**

**01.04.04 – Fizik elektronika**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
диссертации**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on physical-mathematical sciences**

**Axmedov Sherzod Mamaraim o‘g‘li**

Ba’zi organik moddalarning vakuum va atmosfera bosimi sharoitida termal desorbsiyasi va termal ionlashuvi.....

3

**Ахмедов Шерзод Мамараим ўғли**

Термическая десорбция и термическая ионизация некоторых органических соединений в условиях вакуума и атмосферного давлени.....

21

**Akhmedov Sherzod Mamaraim o‘g‘li**

Thermal desorption and thermal ionization of certain organic compounds under vacuum and atmospheric pressure conditions.....

39

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....

43

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ION-PLAZMA VA LAZER TEXNOLOGIYALARI INSTITUTI**

**AXMEDOV SHERZOD MAMARAIM O'G'LI**

**BA'ZI ORGANIK MODDALARNING VAKUUM VA ATMOSFERA  
BOSIMI SHAROITIDA TERMAL DESORBSIYASI VA TERMAL  
IONLASHUVI**

**01.04.04 – Fizik elektronika**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/FM1241 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

**Dissertatsiya O'zR FA Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida bajarilgan.**

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.iplt.uz](http://www.iplt.uz)) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lif portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Usmanov Dilshadbek Tursunbaevich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Umirzakov Boltaxo'ja Ermatovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Kaxramonov Boburjon Ruziboevich**  
fizika-matematika fanlari falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.65.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « 16 » dekabr soat 14<sup>30</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100125, Toshkent sh., Do'rmon yo'li ko'chasi, 33-uy. Tel./faks: (99871) 262-32-54, e-mail: [info@iplt.uz](mailto:info@iplt.uz), Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( №18 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent sh., Do'rmon yo'li ko'chasi, 33-uy. Tel./faks: (99871) 262-31-69.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 03 » dekabr kuni tarqatildi.

(2025 yil « 03 » dekabrdagi №18 raqamli reestr bayonnomasi).



**X.B. Ashurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**I.D. Yadgarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, fizika-matematika fanlari doktori,  
professor

**U.K. Maxmanov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi fizika-  
matematika fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va ahamiyati.** Zamonaviy fanning muhim yo‘nalishlaridan biri inson salomatligiga zararli ta’sir ko‘rsatuvchi organik moddalarning yuqori aniqlikda tahlilini amalga oshirishdir. Hozirgi vaqtida bunday moddalarning iz miqdorlarini aniqlash uchun sezgirlik, tezkorlik, samaradorlik, ishonchlilik va tanlovchanlik jihatidan ustun bo‘lgan analistik usullar qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, ushbu talablarga to‘liq javob beruvchi mass spektrometrik ionlashuv texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda organik moddalar tahlilida vakuum va atmosfera bosimi sharoitida kechuvchi termal desorbsiya (TD) hamda termal ionlashuv (TI) jarayonlarini chuqur o‘rganish, ularning nazariy va eksperimental asoslarini ishlab chiqish zarurdir. Shuningdek, ko‘plab organik molekulalarning ionlashuv qonuniyatlarini, desorbsiya mexanizmlarini hamda ularning fizik-kimyoviy xossalaring ionlashuv jarayonlariga ta’sirini tadqiq etish fundamental va amaliy ahamiyatga ega masala sifatida qaraladi.

So‘nggi yillarda dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida TD va TI jarayonlari bo‘yicha izchil tadqiqotlar olib borilmoqda. Xusan, mass-spektrometriya yordamida qiyin uchuvchan organik moddalarning gaz fazasiga o‘tishini ta’minlovchi TD usullari o‘zining samaradorligi va molekulyar tuzilmani saqlab qolish xususiyati bilan ajralib turadi. TD jarayoni davomida molekulalarning minimal parchalanishi ularning molekulyar ionlari asosiy ion sifatida shakllanishiga imkon yaratadi. TI esa yumshoq ionlashuv usuli bo‘lib, molekula ionlarining parchalanishini kamaytiradi. Shu nuqtayi nazaridan, TD va TI jarayonlari doirasida LHTD (Leidenfrost hodisasi yordamida termal desorbsiya), VSI (vakuum sirt ionlashuv) va ABSI (atmosfera bosimi sharoitida sirtiy ionlashuv) kabi usullarni o‘rganish fizik elektronika nuqtayi nazaridan dolzarbdir. Ushbu tadqiqotlarni rivojlantirish atmosfera bosimi sharoitida ishlovchi portativ mass spektrometrik qurilmalarni ishlab chiqish imkonini berib, amaliy elektronika va ekologik monitoring sohalarida yangi texnologik yechimlar yaratishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda fizik elektronika sohasida psixotrop dori vositalarining ionlashuv jarayonlari, biosuyuqliklardagi narkotik moddalarning iz miqdorini to‘g‘ridan to‘g‘ri aniqlash va sirtiy ionlashuv detektorlarining sezgirligini va selektivligini baholash kabi qator fundamental va amaliy tadqiqotlarda ahamiyatlari natijalarga erishilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son farmonida tarkibida faol moddalar bo‘lgan pestitsidlarni ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida va 2024 yil 6-maydagи PF-73-son farmonida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish borasida qator vazifalar belgilangan. Shu jihatdan, pestitsidlар va alkaloidlarning vakuum va atmosfera sharoitlarida ionlashuv qonuniyatlarini va mass-spektrlardagi asosiy perikursor ionlarini tadqiq qilish ahamiyatli hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya ishi, ma’lum darajada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonining,

2017-yil 17-fevraldagagi PQ-2789-son “Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining, 2019 yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonining ijrolarini ta’minlash chora tadbirlarida nazarda tutilgan vazifalarga muayyan darajada mos keladi.

**Tadqiqotning respublika ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Ilmiy-tadqiqot ishlari III.«Energetika, energiya resurslarini tejash, transport, mashinasozlik va asbobsozlik; zamonaviy elektronika, mikroelektronika, fotonika, elektron asbobsozlikni rivojlantirish» va ПФИ-2 «Fizika, astronomiya, energetika va mashinasozlik» sohalarini qamrab olgan ustuvor yo‘nalishlar doirasida amalga oshirildi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Vakuum sharoitida TD va TI jarayonlari, sirtiy ionlashuv (SI) usuli yordamida, o‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab o‘rganila boshlagan. Kingdon va Langmuir (1923) tomonidan SI hodisasi birinchi marta kashf qilingan bo‘lib, bu jarayon asosan noorganik moddalar uchun qo‘llanilgan. Keyinchalik, U.X. Rasulev va E.Ya. Zandberg 1967-yilda birinchi marta organik moddalar SI usuliga (1967) asos solishgan. Ular ko‘pgina azot asosli organik birikmalar, xususan, aminlar, gidrozin va ularning hosilalari uchun SI qonuniyatlarini chuqur o‘rganishgan, ya’ni SI ning yuqori tanlovchanligi va sezgirligini ko‘rsatib, azot asosli birikmalarning ionlashuv energiyasi (potensiali), adsorbsiya mexanizmlari va TD kinetikasini aniqlaganlar. Bu tadqiqotlar vakuum sharoitida sirtiy ionlashuv (VSI) usuliga asos bo‘lib xizmat qiladi va bu usul organik moddalar, ayniqsa, farmatsevtik va toksik birikmalar tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi. D.T. Usmanov va boshqalar (2010, 2020) bu yo‘nalishni davom ettirib, omnopon va morfin kabi opiat moddalarni VSI yordamida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aniqlash usullarini ishlab chiqdilar. Ushbu ishlar sud tibbiyotida, dorivor moddalar monitoringida va atrof-muhit xavfsizligida qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatgan.

Atmosfera sharoitida TD va TI sohasi nisbatan keyinroq, 1980-yillarning o‘rtalarida rivojiana boshlagan. T. Fujii va H. Arimoto (1985) platina emitterlari yordamida TI detektorlarini rivojlantirgan holda, azot asosli organik moddalar uchun yuqori sezgirlikni ko‘rsatib bergen. Bu tadqiqot ishi ABSI ning mexanizmlarini o‘rganishda muhim qadam hisoblanadi, ammo tadqiqot asosan gaz xromatografiyasi (GX) sohasiga qaratilgan va organik moddalarning umumiy TD va TI qonuniyatlarini to‘liq ochib bermaydi. Yana bir qancha olimlar (R.G. Cooks (Purdue universiteti, AQSh), T.J. Kauppila (Xelsinki universiteti, Finlyandiya), Z. Ouyang (Purdue universiteti, AQSh), H. Chen (Xitoy), John B. Fenn (Virjiniya universiteti, AQSh)) tomonidan turli usullar yordamida desorbsiya va ionlashuv qonuniyatlarini chuqur tadqiq qilingan, jumladan H.Chen desorbsiya atmosfera sharoitida kimyoviy ionlashuv va boshqa atmosfera sharoitida ishlovchi ionlashuv usullarini rivojlantirgan.

Hozirgi kunga qadar qiyin uchuvchi organik birikmalar xususan pestitsidlar va alkaloidlarning TD va TI qonuniyatlarini vakuum va atmosfera sharoitlarida batafsil tadqiq qilinmagan, ularning ion tarkiblari va asosiy ion intensivliklari orasidagi

farqlar, hamda desorbsiya va ionlashuv jarayonlarini baholashga xizmat qiluvchi fizik parametrlari aniqlanmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Ion-plazma va lazer texnologiyalari instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining quyidagi ilmiy-tadqiqot mavzulari doirasida bajarilgan: Ф-ФА-2021-509 “Noorganik (Ti, W, WO<sub>x</sub>, TiO<sub>2</sub>, Si, SiO<sub>2</sub>) va organik (polimerlar) materiallarni metall ionlari bilan implantatsiyalaganda va aktiv organik birikmalar molekulalari bilan adsorbsiyalaganda yuzasida ko‘p komponentli nanostrukturalarning shakllanish mexanizmlari”, “Ko‘p atomli zarralarning qattiq jism sirtlari bilan vakuum va havo muhitida o‘zaro ta’siri, fiziologik faol organik birikmalarni ionlashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish” (2022), “Suiiste’mol qilinuvchi moddalarning qattiq jism sirtidan termoion emissiyasi hamda ikkilamchi emissiya jarayonlarni tadqiq qilish” (2025).

**Tadqiqotning maqsadi.** Vakuum va atmosfera sharoitida ba’zi organik moddalarning termal ionlashuv va termal desorbsiya qonuniyatlarini mass spektrometrik usullar yordamida tadqiq qilish va bu jarayonlarning ilmiy asoslarini rivojlantirishdan iboratdir.

### **Tadqiqotning vazifalari.**

Tadqiqot ishini amalga oshirish uchun quyidagi ilmiy vazifalar belgilandi:

- pestitsidlar (asetamiprid, aldikarb, diazinon, imidokloprid, xlordimeform) ning VSI jarayonlarini eksperimental tekshirish va oksidlangan va metall sirtlarda molekulalarning ionlashuv qonuniyatlarini o‘rganish va solishtirish;
- namunaning TD siga turli darajali dag‘allikka ega bo‘lgan bug‘latkich sirtining ta’sirini aniqlash;
- namunaning TD siga fitorli birikma qoplangan bug‘latkich sirtining ta’sirini aniqlash;
- LHTD jarayonida qiyin uchuvchan organik moddalarning termal desorbsiyaga sirt xususiyatlarining ta’sirini eksperimental ravishda tekshirish;
- ABSI jarayonida asosiy ion sifatida hosil bo‘lgan protonlangan ion [M+H]<sup>+</sup> larning shakllanish mexanizmini tahlil qilish;
- VSI va ABSI tajribalarida olingan mass spektrometrik natijalarni solishtirish.

**Tadqiqotning obyekti.** Pestitsidlar - asetamiprid, aldikarb, diazinon, imidakloprid, xlordimeform, karbaril; alkaloidlar - morfin, papaverin; stimulant modda – kokain.

**Tadqiqotning predmeti.** Tadqiqotning predmeti ba’zi organik moddalarning (pestitsidlar, alkaloidlar va stimulyator) vakuum va atmosfera sharoitida TD va TI qonuniyatları, ya’ni ionlashuv mexanizmlari, haroratga bog‘liqliklari va fizik-kimyoiy xususiyatlarini SI/MS, ABSI va LHTD usullari yordamida o‘rganish, shuning bilan birga TD ga sirt morfalogiyasining ta’sirini o‘rganish.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida quyidagi tadqiqot usullaridan foydalilanilgan: SI/MS, ABSI, LHTD, gaz xromato-mass spektrometriya (GX-MS), pestidsidlarning sublimatsiyalish energiyasini aniqlash uchun Arrenius grafigi usuli.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- ilk bor pestitsidlar (aldikar, diazinon, atsetamiprid, xlordimeform, imidokloprid) ning VSI jarayonlari yordamida mass-spektrlaridagi asosiy ionlari aniqlandi va ularning sublimatsiyalanish energiyalari ionlashuv potensiallari baholandi;
- pestitsidlar uchun oksidlangan emitter sirtida hosil bo‘lgan ionlar intensivligi metall emitter sirtida hosil bo‘lgandagiga qaraganda  $\sim 10^3$  marta katta bo‘lishi aniqlandi;
- patronli bug‘latkich sirt dag‘alligining orttirilishi natijasida sirt va tomchi orasidagi samarali issiqlik uzatilishi yuz berib, ionlar intensivliklarining ortishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi;
- ftorli birikma qoplangan sirtdagi TD jarayonida sirt va tomchi orasidagi kam issiqlik o‘tkazuvchanlik tufayli bug‘lanish orqali sovish kamayib tomchi harorati tez ko‘tarilganligi sababli namunaning termal degradatsiya va umumiylar desorbsiya vaqtlarining qisqarishi aniqlandi;
- ftorli birikma qoplangan sirtga tomizilgan morfin eritmasining TD sida morfin sirt aktiv modda (tomchi ichida va sirtida to‘planish xususiyati) bo‘lganligi uchun TB tufayli parchalanishlarsiz faqat protonlangan  $[M+H]^+$  ionlar tarzida hosil bo‘lishi aniqlandi;
- ilk bor ABSI usulida protonlangan ion  $[M+H]^+$  larning hosil bo‘lish mexanizmi proton almashinuvi reaksiyalari orqali amalga oshishi, ya’ni Bronsted kislotalari sifatida harakat qilishi aniqlandi;
- ABSI mass spektrida protonlangan molekulalar asosiy ion sifatida aniqlandi VSI ga xos bo‘lgan deprotonlangan va fragmentlangan ionlar kuzatilmadi, proton almashinuv reaksiyalari adiabatik jarayonda (issiqlik almashinuvvisiz) ro‘y bergenligi tufayli fragment ionlar kuzatilmaganligi aniqlandi;

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Pestitsidlarning vakuum sharoitida TI qonuniyatlarini sirtiy ionlashuv mass-spektrometriya usulini rivojlantirishga, shuningdek VSI usuli bilan aniqlangan pestitsidlar (aldikar ( $m/z$  89), diazinon ( $m/z$  137), atsetamiprid ( $m/z$  58), xlordimeform ( $m/z$  195), imidokloprid ( $m/z$  194)) ning indikator ionlari bu moddalarni haqiqiy namunalar tarkibida qoldiq miqdorlarini aniqlashga xizmat qiladi. Atmosfera bosimi sharoitida o‘tkazilgan sirtning turli morfoloyigasining TD ta’sirlaridan va ABSI tadqiqotlarida qo’llanilgan turli, qiyin eruvchan metall emitterlardan foydalanish mass spektrometriya ionlashuv manbalarini optimallashtirishda qo’llanilish imkonini beradi, bu kelgusida termik ionlashuvga asoslangan portativ qurilmalar ishlab chiqilishiga asos yaratadi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi VSI/MS, ABSI, LHTD, GX-MS usullarini qo’llash, tajriba sharoitlarining va statistikasining batafsil va to‘liq tahlil qilinishi, yuqori aniqlikdagi zamonaviy o‘lchov asboblaridan foydalanish bilan asoslangan; olingan eksperimental natijalar puxta hisob-kitoblarga asoslangan va mumkin bo‘lgan xatoliklarni hisobga olgan holda statistik usullar yordamida qayta ishlangan, olingan eksperimental natijalar va

qilingan xulosalar qiyin uchuvchi organik birikmalarning ionlanish mexanizmlariga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlar ma’lumotlari bilan solishtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati: Tadqiqot ba’zi organik moddalarning vakuum (VSI/MS) va atmosfera (ABSI, LHTD) sharoitida (oksidlangan, metall, sayqallangan, ftorli birikma qoplangan sirt) TD va TI jarayonlarining fizik-kimyoviy qonuniyatlarini birinchi marta tizimli taqqoslash orqali ohib berdi. Vakuumda  $[M-H]^+$  va  $[M-R]^+$ , atmosfera bosimida  $[M+H]^+$  ionlarining hosil bo‘lish mexanizmlari aniqlanib, proton almashish va dissotsiativ reaksiyalarning sharoitga bog‘liqligi aniqlandi. Pestitsidlarning ionlashuv potensiallari va sublimatsiyalanish energiyalari birinchi marta eksperimental aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: VSI/MS va ABSI usullari bilan olingan natijalar, aniqlangan indikator ionlari orqali pestitsidlarni va alkaloidlarni bionamunalar (oziq-ovqat, suv, biologik materiallar)da yuqori sezgirlik va tanlovchanlik bilan aniqlash imkonini berishi mumkin. Bu usullar qishloq xo‘jaligi xavfsizligi va sud-tibbiyotda qo‘llanilishi mumkin. LHTD jarayonida sirt dag‘alligi orttirilishi va ftorli birikma bilan qoplanishi moddaning desorbsiya vaqtini qisqartirib, ionlashuv samaradorligini oshiradi. Bu portativ qurilmalar ishlab chiqish uchun texnik asos bo‘lishi, atrof-muhit monitoringi va toksikologiyasida tezkor tahlilni ta’minlashi mumkin. Olingan qonuniyatlar va usullar MS asbob-uskunalarini rivojlantirishda qo‘llanilishi va yangi avlod analistik qurilmalar yaratishda ilmiy-texnik yechimlar berishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilish.** Dissertatsiya ishida olingan quyidagi ilmiy natijalar amaliyotga joriy etilgan:

Atmosfera bosimi sharoitida sirtiy ionlashuv jarayonida emitter sifatida qo‘llanilgan qiyin eruvchi metallar – volfram (W), reniy (Re), palladiy (Pd), molibden (Mo), titan (Ti) va zanglamaydigan po‘lat (SUS 304) ning taxminan 600 °C da oksidlanishi va Leidenfrost hodisasi yordamida termal dessorbsiya (LHTD) jarayonida metall bug‘latkich (SUS 304) sirtining dag‘alligini oshirish va sirtning ftor qoplanishi natijasida analit desorbsiyasi vaqtining qisqarishi kabi ilmiy natijalar “Metall oksidlari bilan legirlangan silikatlarning termoelektrik xossalari va o‘z-o‘zidan tashkil bo‘lish jarayonlari” nomli Uzb-Ind-2021-78 O‘zbekiston-Hindiston qo‘shma fundamental loyihasida qo‘llanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining 2025-yil 5-sentyabrdagi №-01/11-16155-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish silikat shishani metall oksidlari (Ru, Cu, Mg) bilan legirlash jarayonida solishtirma qarshilikning temperaturaga bog‘liq holda o‘zgarishini kompleks o‘rganishda, hamda silikat shishanining elektr o‘tkazuvchanligi bir necha barobar oshishini aniqlashga imkon bergen.

Pestitsidlar (atsetamiprid, xlordimeform, imidokloprid) ning vakuum sirtiy ionlashuv mass-spektrometriyasi qonuniyatlarini o‘rnatish hamda ularning molekulalari qizdirilgan oksidlangan volfram sirtiga ta’siri natijasida ro‘y beradigan geterogen reaksiya kanallarini tushuntirish va Alkaloidlar va stimulantlar (kokain, morfin, papaverin) ning atmosfera bosimi sharoitida sirtiy ionlashuv mass spektrlari hosil bo‘lishida protonlangan ionlarning paydo bo‘lish mexanizmlari vakuum

sharoitidagi sirtiy ionlashuvdan tubdan farqlanishi kabi ilmiy natijalar U.A. Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida 2023-2024-yillarda bajarilgan “Ko’p atomli zarralarning vakuum va atmosfera sharoitida qattiq jism sirti bilan o’zaro ta’siri, faol organik birikmalarni yangi ionlashtirish uslublarini rivojlantirish, ishqoriy metall ionlari bilan modifikatsiyalangan qattiq jism sirtlarining elektron va kristall strukturalari hamda manfiy ionli changlanishning elementar tahlilini EXEYS va IIMS usullari bilan tadqiq qilish” nomli bazaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining 2025-yil 29-sentyabrdagi №-2/1255-2322-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijalardan foydalanish yuqori haroratli qiyin eriydigan metall oksidlari yuzasida yangi psixotrop modda molekulalarining adsorbsiyasi, adsorbsiyalangan qatlama sodir bo’ladigan geterogen reaksiyalarni hamda funksional guruhlarning mass-spektrda hosil bo’lish sabablarini aniqlashga imkon bergan.

**Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish.** Dissertatsiya ishining asosiy natijalari 8 ta konferensiyada, jumladan, 7 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o’tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha olingan asosiy natijalar jami 14 ta ilmiy ishlarda chop etilgan, ulardan 6 ta ilmiy maqola, shu jumladan 4 ta xalqaro (4 tasi Web of Science/Scopus bazasidagi jurnallarda) va 2 ta maqola O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan jurnallarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishning tuzilishi kirish, 4 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ilmiy ishning hajmi 110 bet matndan iborat bo‘lib, ularda 53 ta rasm va 2 ta jadval mavjud.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti, predmeti va metodlari, shuningdek tadqiqot ishi O’zbekiston Respublikasining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari bilan muvofiqligi aniqlangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natjalarning ishonchligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natjalarning joriy etilishi, aprobatsiyasi, shuningdek dissertatsiya hajmi va tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning birinchi **“Ba’zi organik moddalarning mass spektrometrik ionlashuv usullari yordamida tadqiq qilinish holati”** bobida mass-spektrometriyaning ilmiy-nazariy asoslari, xususan, organik moddalarning ionlashuv jarayonlari, ularning mexanizmlari hamda qo’llanilish sohalari keng qamrovda tahlil qilingan. Turli ionlashuv usullarining fizik-kimyoviy mohiyati, afzallik va chekllovleri yoritilgan. Shuningdek, SI hodisasining nazariy asoslari, qiyin va oson ionlashuv holatlarining shartlari batafsil tushuntirilgan. Vakuum va atmosfera sharoitida ishlaydigan ionlashuv usullari yordamida olib borilgan

tadqiqotlar asosan miqdoriy analizga qaratilganligi haqida xulosa qilingan. Organik birikmalarning vakuum va atmosfera sharoitida ionlashuv jarayonida zarrachalarning ion holatlarining o'rnatilish mexanizmlari, adsorbsiyasi, desorbsiyasi va ionlashuv samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar yetarlicha o'rganilmaganligi ochib berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi "**Eksperimental qurilma tasnifi va tadqiqot o'tkazish uslublari**" bobida SI tajribalari uchun МИ-1201B statik magnit mass-spektrometr va ABSI tajribalari uchun orbitrap mass spektrometer qurilmalari batafsil tavsiflangan. Ionlashuv manbalari, LHTD jarayonida ishlatilgan patronli bug'latkich, ABSI usulida foydalanilgan emitterlar va ularning fizik xususiyatlari haqida, hamda namunalar sofligini tekshirish uchun qo'shimcha eksperimental usul gaz xromatograf mass-spektrometr qurilmasi haqida ma'lumotlar yoritilgan, shuningdek, eksperimental tadqiqot usullarga qo'yiladigan talablar, namunalar va ularni eksperimentga tayyorlash jarayonlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi "**Pestidsidlarning vakuum sharoitida sirtiy ionlashuv qonuniyatları**" bobida pestitsidlar: imidokloprid, xlordimeform, atsetamiprid, aldikarb va diazinonlarning VSI/MS qonuniyatları, oksidlangan sirt va metall sirtida kechadigan geterogen jarayonlari, dissotsiatsiya reaksiyalari tadqiq qilingan, shuningdek asosiy ion chiziqlarining ionlashuv potensiallari va pestitsidlar molekulalarining sublimatsiyalanish energiya  $E_{sub}$  lari aniqlangan.

Imidoklopridning oksidlangan volfram emitterda olingen SI mass spektri 1a-rasmida tasvirlangan. Bu mass spektr  $T_{em} = 1200$  K va  $T_{K.b.} = 345$  K sharoitida o'lchangan, unda molekulyar ion  $M^+$  ( $m/z$  255) va bir qancha fragment ion  $[M-R]^+$  lardan tashkil topgan asosiy ion toki  $m/z$  194 fragment bo'lган, uning tok zichligi taxminan  $10^{-9}$  A/sm<sup>2</sup> ni tashkil etgan. Bu ionlarning ko'pchiligi to'yingan bog'lar va umumlashmagan elektronlarga ega. Ular  $sp^2$ -gibrid orbitallariga ega musbat zaryadlangan to'rt valentli azot atomi sifatida namoyon bo'ladi.




**1-rasm.** Imidoklopridning SI mass-spektrlari. Oksidlangan emitter sirtida olingen (a), metall emitter sirtida olingen (b) mass-spektrlar.

Imidakloprid molekulalarining metall volfram emitteridan foydalanib olingen mass spektri 1b-rasmida tasvirlangan, bunda  $T_{em} = 2000$  K va  $T_{K.b.} = 345$  K ni tashkil qilgan. Bu mass spektrni 1a-rasm bilan taqqoslaganda  $m/z$  194, 196, 168, 166, 160,

126, 72 va 58 bo‘lgan fragment ionlarni o‘z ichiga olagan, bu holda ham asosiy ion chizig‘i m/z 194 fargmenti bo‘lib zichligi taxminan  $10^{-12}$  A/sm<sup>2</sup> ni tashkil etgan.


Imidaklopridning mass spektrlarini taqqoslash ionlar tarkibida o‘zgarish yo‘qligini ko‘rsatgan va faqat metall volfram emitter sirtidapaydo bo‘lgan ionlar intensivligi oksidlanguandagiga nisbatan  $10^3$  marta kichik ekanligi aniqlangan.



## 2-rasm.

Imidaklopridning asosiy ionlarining shakllanish strukturasи.

Molekulyar ion  $M^+$  ning hosil bo‘lishi VSI qoidalariga muvofiq  $NO_2$  guruhidagi azot atomi orqali adsorbsiyalanishi natijasida sodir bo‘ladi.  $[M-R]^+$  fragment ionlari turli reaksiya kanallari orqali hosil bo‘ladi. Imidaklopridning adsorbsiyasi N-nitroimidazol halqa strukturasidagi birinchi azot geteroatomida yuz beradi. 2-rasmida imidaklopridning asosiy ionlarining strukturasи va ularning hosil bo‘lish geterogen reaksiya kanallari ko‘rsatilgan. m/z 194 ion N-nitroimidazol strukturasidagi birinchi azot geteroatomni orqali adsorbsiyalanishi natijasida hosil bo‘lgan. Imidaklopridning mass-spektrining kichik massali sohasida m/z 108, 100, 94, 86, 84, 58 va 72 bo‘lgan bir nechta ionlar aniqlangan bo‘lib, emitorning qizigan sirtida molekulaning chuqur parchalanishi natijasida hosil bo‘lgan.



**3-rasm.** Xlordimeformning oksidlangan emitterda olingan SI mass-spektri, (a)  $T_{em}=600$  K, (b)  $T_{em}=1000$  K.

Xlordimeformning VSI/MS usuli orqali oksidlangan emitterda olingan mass spektri 3a,b-rasmlarda tasvirlangan, 3a rasmida  $T_{em} = 600$  K ni 3b-rasmida  $T_{em} = 1050$  K tashkil etgan natijalar keltirilgan,  $T_{K.b.} = 385$  K ni tashkil qilgan. Emitterning quyi haroratida olingan spektr protonlangan  $[M+H]^+$  m/z (197, (199))ionlar va fragment ionlar  $[M-R]^+$  m/z (163, 159, 100, 94) dan tashkil topgan.

Yuqori haroratda spektrdagи asosiy ion chizig‘i protonlangan m/z 197 iordan deprotonlangan m/z 195 ionga siljiydi. m/z 193 dagi  $[M-H-2nH]^+$  ionining paydo bo‘lishi xlordimeformning strukturaviy o‘zgarishini ko‘rsatadi. m/z 119, 111, 100,

95 va 58 qiymatdagi fragment ionlar qizdirilgan sirtda chuqur fragmentatsiya natijasida hosil bo‘lgan. Xlordimeformning volfram metall emitterida olingan VSI ( $T_{em}=2000$  K,  $T_{K.b.}=385$ ) mass-spektri asosan  $M^+$ ,  $[M-H-2nH]^+$  va  $[M-R]^+$  ionlaridan tashkil topgan. Asosiy ion m/z 58 qiymatga ega bo‘lgan  $[M-R]^+$  bo‘lib, qizdirilgan sirtda molekulaning chuqur fragmentatsiyasi natijasida hosil bo‘lishi aniqlangan.

Atsetamiprid molekulalarining VSI/MS tajribalarida emitter sifatida oksidlangan volframdan foydalanilgan uning harorati  $T_{em} = 1000$  K va  $T_{K.b.} = 408$  K sharoitida o‘tkazilgan, mass-spektr  $[M-H]^+$ ,  $[M-3H]^+$  va bir qancha  $[M-R]^+$  tarkibli ion chiziqlaridan iboratligi ko‘rilgan, bunday natijalar VSI usulida ionlar hosil bo‘lish qonuniyatlariga mos kelgan. m/z 221 va 219 ion chiziqlari depronlangan ionlarga mos kelgan, atsetamipridning kimyoviy strukturasida Cl atomlarining borligi bunday tarkibli ionlarni osongina aniqlash imkonini bergen.


Asetamiprid to‘rtta azot geteroatomiga ega bo‘lib zaryad xlor atomidan keyingi ikkinchi azot geteroatomi yordamida emitter sirtiga adsorbsiyalangan. Asetamipridning mass-spektrida asosiy ion chizig‘i m/z 58 bo‘lgan ion bo‘lib, u emitter sirtida atsetamiprid molekulalarining parchalanishi vaqtida hosil bo‘lgan.

Diazin molekulalarining VSI/MS tajribalarida emitter sifatida oksidlangan volframdan foydalanilgan uning harorati  $T_{em} = 1000$  K va  $T_{K.b.} = 408$  K sharoitida o‘tkazilgan bo‘lib mass spektrida protonlangan ion  $[M+H]^+$  (m/z 305) chizig‘i va bir qancha fragmentlangan ion  $[M-R]^+$  (m/z 64, 93, 135, 137, 151, 153, 181) chiziqlar kuzatilgan.


Diazinon molekulasi sirtga pirimidin halqasidagi izopropil va metil guruhi orasidagi azot atomi bilan bog‘lanadi. Natijada emitterning past haroratlarida odatda assotsiativ reaksiyalar yuzaga keladi, bu diazinon molekulasing  $[M+H]^+$  m/z 305 ion chizig‘i hosil bo‘lganligi bilan asoslangan. Diazinon mass spektridagi fragment ion toklari primidin halqasidan fosforik ester guruhi bilan bog‘langan C-O bog‘ining va O-P bog‘ining uzilishi natijasida shakllanganligi ko‘rilgan.

Aldikarb molekulalarining VSI/MS tajribalari oksidlangan volfram emitterda,  $T_{em} = 950$  K va  $T_{K.b.} = 335$  K sharoitida o‘tkazilgan bo‘lib mass-spektri depronlangan ion  $[M-H]^+$  (m/z 189) chizig‘i va bir qancha fragmentatsiyaga uchragan ion  $[M-R]^+$  (m/z 58, 72, 89, 100, 115) chiziqlaridan tashkil topdi. Fragment ioni m/z 115 depronlangan iordan markaziyl uglerod zanjirini 2 ta metil ( $CH_3$ ) va metiltio guruhi (-S- $CH_3$ ) tark etishi natijasida hamda m/z 89 bo‘lgan fragment ioni oksim guruhidan N-C bog‘ining uzilishi natijasida shakllanadi, shu bilan birga, m/z 89 ioni mass spektrda toklar nisbatining intensivligi yuqoriligini hisobga olsak, bu ion biz ta’kidlagandan boshqa reaksiya kanallari orqali ham shakllanishi mumkin.

VSI tajribalarida statik magnit mass-spektrometri birikmaning monomolekulyar parchalanishlarini aniqlash imkoniyati beradi. Xlordimeformning mass-spektrida  $[M+H]^+$ ,  $[M-H]^+$  va  $[M-3H]^+$  ionlarining monomolekulyar parchalangan ionlari kuzatildi, ularning 4a,b,c-rasmlarda parchalanish sxemalari ko‘rsatilgan. Monomolekulyar parchalanishlar diazinonning  $[M-R]^+$  (m/z 135) fragment ionida ham kuzatildi.



**4-rasm.** Xlordimeformning monomolekulyar parchalanishga uchragan ionlari



**5-rasm.** Imidokloprid (m/z 194), xlordimeform (m/z 195), atsetamiprid (m/z 58), diazinon (m/z 137), aldikarb (m/z 89) larning asosiy ion toklarining ionlashuv potensiallarini aniqlash uchun Arrenius grafigi

Ion toklarining emitter haroratiga bog'liqligi, odatda, tipik xususiyat bo'lib moddalarning asosiy xususiyatlarini tahlil qilishga yordam beradi. Bu bog'liqlik ionlashgan zarralar hosil bo'lishiga olib keladigan kimyoviy reaksiyalar unumdoorligining haroratga bog'liqligidan kelib chiqadi. Imidokloprid, xlordimeform, atsetamiprid, diazinon va aldikarblarning asosiy ion toklarining emitter haroratga bog'liqliklari emitter sirtida kechadigan degidrogenlanish, gidrogenlanish va dissotsiatsiyalanish reaksiyalarning borishi haqida ma'lumot olishga yordam berdi. Qaralgan asosiy ion toklarining haroratga bog'liqliklari VSI nazariyasiga binoan  $e(V-\varphi) \gg kT$  qiyin ionlashuv holatini mos kelishi aniqlandi. Shu vaqtgacha yuqorida ta'kidlangan pestitsidlarning ionlashuv potensiallari ilgari aniqlanmagan bo'lib, VSI usulining noyob xususiyatlaridan biri ion toklarining haroratga bog'liqliklari yordamida potensial ionlashuv energiyalarini baholashdir.

VSI tadqiqotlarida pestitsidlarning ionlashuv potensiallari

### 1-jadval

Namunalar	Brutto formulalari	Molyar massa, g/mol	Aniqlang an asosiy ionlar, m/z	Ionlashuv potensiali, V(eV)	Sublimatsiyalash energiyasi, E <sub>sub</sub> (eV)
Imidokloprid	C <sub>9</sub> H <sub>10</sub> ClN <sub>5</sub> O <sub>2</sub>	255	194	7,73	0,68
Xlordimeform	C <sub>10</sub> H <sub>13</sub> ClN <sub>2</sub>	196	195	8,1	0,62
Atsetamiprid	C <sub>10</sub> H <sub>11</sub> ClN <sub>4</sub>	222	58	7,89	0,72
Diazinon	C <sub>12</sub> H <sub>21</sub> N <sub>2</sub> O <sub>3</sub> PS	304	137	7,1	0,54
Aldikarb	C <sub>7</sub> H <sub>14</sub> N <sub>2</sub> O <sub>2</sub> S	190	89	7,34	0,49

Pestitsidlarning asosiy ion chiziqlari uchun Arrenius grafigi 5-rasmida, ionlashuv potensiallari esa 1-jadvalda keltirilgan. Knudsen bug'latkichida organik molekulalar issiqlik ta'sirida termal dissotsiatsiyaga uchrab, boshlang'ich molekulaning boshqa

shakllariga aylanishi va emitter sirtida moddaning o‘ziga xos bo‘lmagan ionlarni hosil qilishi mumkin. Shuning uchun o‘rganilayotgan insektitsidlarning asosiy ion toklarining eng katta ion tokiga nisbatan logarifmining bug‘latkich haroratiga teskari bog‘lanishi olingan va Arrenius grafiklari chizilgan. Graflardagi to‘g‘ri chiziqlar qiyaliklarining parallel bo‘lishi ionlarning aynan boshlang‘ich molekuladan hosil bo‘layotganini ko‘rsatadi. Ushbu parallel qiyaliklar orqali moddaning sublimatsiya issiqlik energiyasi baholanib, pestitsidlar uchun olingan qiymatlar 1-jadvalda berilgan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi “**Atmosfera bosimi sharoitida organik moddalarning termal desorbsiyasi va termal ionlashuvi**” bobida atmosfera bosimi sharoitida organik moddalarning turli holatdagi qizdirilgan metall sirtlardagi desorbsiyasi va yuqori erish haroratiga ega bo‘lgan (sim) emitter sirtlaridagi ionlashuv jarayonlari yoritilgan. Shu bilan birga sirtiy ionlashuv mass spektrometriya usulining faqat vakuum emas, balki atmosfera bosimi sharoitida ham qo‘llanilish imkoniyatlari va ionlar hosil bo‘lish mexanizmlari haqidagi tadqiqot natijalari keltirilgan.

Leidenfrost hodisasi yordamida termal desorbsiya (LHTD) past uchuvchanlikka ega bo‘lgan organik moddalarni mass spektrometrik tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan usul hisoblanadi. LHTD jarayonida analit eritmasining bir tomchisi qizdirilgan sirtga tomiziladi, u yerda tomchi bug‘ qatlami hosil qilib, sirt ustida suzib yuradi (levitatsiyalanadi), natijada erituvchi sekin bug‘lanib erituvchi ichida analit konsentratsiyasi oshadi. Bug‘lanishning so‘nggi bosqichida analit qoldiqlari bug‘ qatlami ustida levitatsiyalanadi va desorbsiya sodir bo‘lib, ionlashuv usullari yordamida ionlar hosil qilinib mass spektrometr yordamida aniqlanadi.


LHTDning samaradorligi sirt morfoloyigasiga bog‘liq ekanligini ikki xil tadqiqot yordamida o‘rganilgan.

Birinchi tadqiqotda silliqligi turli darajadagi sirtlarning LHTD jarayoniga ta’siri tadqiq qilindi. Analitning desorbsiya vaqtini qisqartirish va degradatsiyani kamaytirish maqsadida eritma tomiziladigan patronli bug‘latkich sirti alimuniy oksidi asosidagi 5000 (3 mkm) grit raqamli abraziv va 2000 (10 mkm), 1000 (20 mkm), 400 (50 mkm), 100 (200 mkm)) grit raqamli abraziv (qum qog‘oz) lar bilan sayqallab tadqiqotlar olib borildi. Quyida ushbu tadqiqot natijalari qisqacha bayon qilindi.


Turli abrazivlar bilan sayqallangan patronli bug‘latkich sirtiga metanol tomizilganda tomchi sirtga tegmasdan levitatsiyalanadi va shu jarayonda doimiy bug‘lanish hisobiga undagi analitlar (kokain, morfin) konsentratsiyasi ortadi. Metanol to‘liq bug‘langach, tomchi tarkibidagi analit qoldiqlari sirtda qolib, sirt bilan bevosita kontaktda termal parchalanadi. Keyin esa ana shu qoldiqlarning sublimatsiyasi natijasida ularning levitatsiyasi qayta boshlanadi.

Tajriba natijalari sirt dag‘alligi ortishi bilan analit qoldiqlari sirtga tegmasdan levitatsiyalanishini ko‘rsatdi. 400 va 100 grit abraziv bilan sayqallangan sirtlarda analitlarning termal parchalanishi kuzatilmadi, ya’ni kokain va morfin qoldiqlari qizdirilgan sirtda levitatsiyalanganda, parchalanish sezilarli kamayadi. Bu sirt dag‘alligi ortishi bilan qizdirilgan sirtdan qoldiqqa issiqlik o‘tkazuvchanligining

ortishi bilan bog'liq bo'ladi. Kutilganidek, kokain va morfin qoldiqlarining bug'lanish vaqtлari dag'allik ortishi bilan qisqaradi va  $[\text{kokain} + \text{H}]^+$  va  $[\text{morphin} + \text{H}]^+$  ning eng kuchli ionlar intensivliklari 100 grit raqamli abraziv bilan sayqallanganda sirtda kuzatiladi. Qoldiqning tez qizdirilishi termal parchalanish kamaytirilishini ko'rsatadi, bu olingan natijalar Beuler va boshqalar tomonidan ilgari surilgan nazariyaga mos keladi.



**6-rasm.** Namuna qoldig'ining patronli bug'latkich sirtda levitatsiyalanishining konseptual ko'rinishi.



**7-rasm.** Qizdirilgan, qoplamasiz va ftorli birikma qoplangan metall sirtidan eritma tomchisining bug'lanish jarayonining konseptual ko'rinishi.

6a va 6b-rasmlarda analit qoldiqlarning tekis sirtda va dag'al sirtda levitatsiyalanishining sxematik ko'rinishi tasvirlangan. Qizdirgich sirtidagi analit qoldig'i o'z bug'i ustida levitatsiyalanadi. 6a-rasmdagi tekis sirt uchun analit qoldig'ining pastki yuzasidan bug'langan bug' konveksiya orqali yuqoriga oqadi va havo qarshi oqimi yordamida harakatlanadi. Bug'lanish natijasida sovish va atrofdan "sovuuq" havo oqimi kelishi tufayli analit qoldig'ining harorati ko'tarilishi kamayadi, natijada qoldiq sekin bug'lanadi. Aksincha, 6b-rasmda pastki qismidagi bo'shliqdagi bug' qizdirgich devoriga qamalib, analit qoldig'i va qizdirgich devori o'rtasida samarali issiqlik uzatilishi yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, 6b-rasmdagi dag'al sirtning issiqlik zichligi 6a-rasmdagi tekis sirtga qaraganda yuqori bo'ladi. Analit qoldig'ining pastki qismidagi bo'shliqda bug'ning qamalib qolishi tufayli qoldiqning harorati oshadi, bu esa analit qoldig'ining bug'lanish vaqtini qisqartiradi. Ikkinci tadqiqotda qoplamasiz va ftorli birikma qoplangan sirtlarning LHTDga ta'siri o'rganildi. LHTD jarayonida analitning desorbsiya vaqtini qisqartirish va bu

jarayonga modda turi xossalaringin ta'sirini o'rganish maqsadida o'tkazilgan tadqiqot natijalari qisqacha bayon qilindi.

